

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”
Rektor Sh. Sirojiddinov
201 8 -yil “21” 11



“ESKI O'ZBEK”
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
Ro'yat qoidasi № 5111200-3.17
№ BD-5120100-3.07
201 8 -yil “21” 11

**ESKI O'ZBEK YOZUVI
FAN DASTURI**

Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar soha
Ta'lim sohasi: 110000 – Pedagogika
120000 – Gumanitar soha
Ta'lim yo'nalishi: 5111200 – O'zbek tili va adabiyoti
5120100 – Filologiya va tillarni o'qitish
(o'zbek tili)

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018-yil "9" - 12 - 1000 -sonli buyrug'ining 4 -ilovasi bilan fan dasturi ro'yxati tasdiqlangan.

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashining 2018-yil "21" - 11 - 5 -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

Fan dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:

- Sulaymonova N. – ToshDO'TAU, "Sharq tillari" kafedrasida o'qituvchisi, filologiya fanlari nomzodi, dotsent
- Abdunabiev S. – ToshDO'TAU, "Sharq tillari" kafedrasida o'qituvchisi

Taqrizchilar:

- Shamsimuhamedov I. – ToshDO'TAU, "Sharq tillari" kafedrasida katta o'qituvchisi, filologiya fanlari nomzodi
- Shomusarov Sh. – ToshDSHI, "Arab filologiyasi" kafedrasida mudiri, filologiya fanlari doktori, professor

Fan dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy-metodik kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2018-yil "28" - avgustdagi 1 -sonli bayonnoma).

I. O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

O'zbek tili va adabiyoti, folklorining tarixan shakllangan adabiy, lingvistik maktablari va ta'limotlarini, mumtoz va zamonaviy metodlarini, buyuk ajdodlarimizning o'zbek va jahon tilshunosligi rivojiga qo'shgan hissasi, ularning ilmiy merosi, ona tilimizning xalqaro miqyosdagi o'rni va nufuzi, uning boshqa tillar bilan aloqalari, o'zbek tili va adabiyotining rivojlanish istiqbollari bilan bog'liq ilmiy muammolarni tadqiq etish uchun arab va fors tillari va ularning grammatik normalarini o'rganish dolzarbligini kasb etadi.

"Eski o'zbek yozuvi" bo'yicha bakalavr kursining maqsad va vazifalari o'zbek tili va adabiyotining har tomonlama taraqqiy topishida Mahmud Koshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy kabi ilmiy fan va adabiyot namoyandalarining xizmati va qoldirgan merosini, ayniqsa Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Muhammadrizo Ogahiy, Boborahim Mashrab, Muqimiy, Furqat kabi o'nlab mumtoz adiblarimizning umumbashariyat madaniy xazinasidan munosib o'rin olgan o'lmas asarlarini chuqur o'rganish va ilmiy asosda tadqiq etishga qaratilgan bo'lib talabalarda ilmiy axborot bilan ishlash ko'nikma va malakalarini shakllantirish, o'qish, yozish, eski o'zbek yozuvi imlosidagi qo'lyozma, toshbosma gazeta, jurnal va ilmiy asarlarni o'qishga, ulardan o'z faoliyati uchun zarur bo'lgan axborotlarni olishga o'rgatish.

"Eski o'zbek yozuvi" fani asosiy ixtisoslik fanlardan biri hisoblanadi. Ushbu fan dasturi "O'zbek tili tarixi", "O'zbek folklori", "O'zbek adabiyoti tarixi", "Navoiyshunoslik", "Matnshunoslik", "O'zbek tilshunosligi tarixi", "Leksikografiya asoslari", "O'zbek dialektologiyasi", "O'zbek mumtoz poetikasi asoslari" kabi umumkasbiy fanlar bilan uzviy bog'langan bo'lib, ushbu fanlarda aks etgan ayrim adabiy-nazariy masalalarni qamrab olishi jihatidan uyg'unlik kasb etadi.

II. O'quv fanining maqsadi va vazifasi

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga arab va fors grafikasi asosidagi eski o'zbek yozuvini o'rgatish va talabalarni eski o'zbek tilida yozilgan asarlarni o'qishga tayyorlashdir..

Fanning vazifasi:

- arab yozuvi asosida eski o'zbek yozuvidagi matnlarni yozish va o'qishga o'rgatish;

- eski o'zbek tilida yaratilgan yozma yodgorliklar matnini qiynalmasdan o'qish ko'nikmalarini shakllantirish;

- eski o'zbek yozuvining o'ziga xos xususiyatlarini o'rgatish;

- bu yozuvni o'rta darajadagi xattot darajasida yoza olishi;

- matnlarni sharhlab o'qish;

- matnshunoslik va manbashunoslik haqida dastlabki ma'lumotlarni berish.

"Eski o'zbek yozuvi" o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida **Talaba:**

- eski o'zbek yozuvi va uning tarqalishi, arab harflarining o'ziga xos xususiyatlari, eski o'zbek yozuvi fonetikasi, morfologiyasi, punktuatsiyasi, eski

yozuvga xos qisqa va cho'ziq unlilar va boshqa belgilar, arab, fors va eski o'zbek yozuvidagi o'zaro farqlar haqida *bilimga*;

- arab va fors tilidagi imlo qoidalarini, so'z yasalişini, o'zak va u orqali so'zlarni topa bilishni, arab imlosidagi matnlarni qiyinchiliksiz mutolaa qilib tabdil qila olishni, o'zbek tiliga arab va fors tillaridan o'zlashgan so'zlarni tahlil qila olishni;

- eski o'zbek yozuvida arab imlosining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, ularning grammatik qoidalarini tushunish, arab yozuvidagi manbalarni farqlash, eski o'zbek yozuvida o'qish, arab imlosida xatosiz yoza olish *ko'nikmasiga*;

- ilmiy axborot bilan ishlash, o'qish, yozish, arab imlosidagi qo'lyozma, toshbosma gazeta, jurnal va ilmiy asarlarni o'qish, ulardan o'z faoliyati uchun zarur bo'lgan axborotlarni olish, joriy imloga tabdil va tahlil qila olish va ulardan foydalanish *malakasiga ega bo'lishi kerak*.

III. Asosiy qism (amaliy mashg'ulotlar)

“Eski o'zbek yozuvi” qismi bo'yicha

1-Modul. Eski o'zbek yozuvining tovushlar tizimi va yozuv

1-mavzu. Arab yozuvining o'ziga xosliklari

Arab yozuvi va uning tarqalishi. Arab adabiy tilining vujudga kelishi. Klassik arab tili. Hozirgi zamon arab adabiy tilining shakllanishi. Arab lahja(sheva)larining o'ziga xosligi. Arab alifbosi.

2-mavzu. Arab alifbosidagi harflarning yasalişhi

Arab harflarining o'ziga xos xususiyatlari. O'zbek va arab tillaridagi undoshlarning qiyosiy tasnifi. Arab tiliga xos undosh tovushlar. Unli tovushlar va ularning yozilişhi. Bo'g'in.

3-mavzu. Munfasil va muttasil harflar

Munfasil harflarning so'zlarda kelishi. Muttasil harflarning so'zlarda qo'llanilişhi. So'zlarni to'g'ri o'qish qoidalari. Alif maqsura, ya'ni qisqa alifning so'zning oxirida o'qiliş qoidasi.

4-mavzu. Arab alifbosidagi o'zbek tiliga xos bo'lmagan tovushlarni ifodalovchi harflar

Alif yo (y). So'z boshida qo'llanilişhi, uning «e», «i» unlisini ifoda qilishi, forscha, ba'zan turkiy so'zlarda «yo» harfining yozilmaslik an'analari yoki harakat bilan berilişhi.

Alifu vov. So'z boshida qo'llanilişhi, uning «u», «o» unlilarini ifoda qilishi. Arabcha, forscha, ba'zan turkiy so'zlarda vov harfining yozilmaslik an'analari yoki harakat bilan berilişhi.

Vovu alif. So'z o'rtasida, so'z oxirida u unlisining cho'ziq talaffuz qilinişini bildirilişhi. «o» unlisi kabi o'qilişhi.

Nunu kof. So'z o'rtasida va oxirida qo'llanilişhi, hozirgi o'zbek tilidagidek «ng» tovushini ifoda qilishi.

5-mavzu. Unli tovushlarning yozuvda ifodalanilişhi

Qisqa va cho'ziq unlilar. Unlilarning so'zlarda qo'llanilişhi. Unlilarning talaffuzi.

6-mavzu. Ayn harfining o'ziga xos xususiyatlari

Arab va barcha somiy tillar uchun xos tovush.

7-mavzu. Arab izofasi, shamsiy va qamariy harflar

Arab alifbosining 2 guruhga bo'linilişhi. Shamsiy harflar va ularning nomlanilişhi. Qamariy harflarning nomlanilişhi. Al-artikldagi “j” tovushining talaffuzi. Qamariy harf bilan boshlangan so'zlarning talaffuz etilişhi. Shamsiy harflar bilan boshlangan so'zlarning talaffuzi.

8-mavzu. Fors izofasi

Forsiy izofa va uning eski o'zbek yozuvidagi o'mi.

9-mavzu. Abdulla Avloniyning “Turkiy Guliston yohud ahloq” asarini o'qish va tahlil qilish

Abdulla Avloniyning “Turkiy Guliston yohud ahloq” asaridagi arabiy va forsiy so'zlarni tahlil qilish.

10-mavzu. Eski o'zbek yozuvidagi matnlarda arab tilidan o'zlashgan so'zlar

Eski o'zbek yozuvidagi matn tarkibidan arabiy o'zlashmalarni aniqlash usullari. Arab tiliga xos bo'lgan harflar. Arab tilida so'z yasash vaznlari.

11-mavzu. Arab o'zlashmalari ishtirok etgan matnlar tahlili

Yassaviy hikmatlari. Navoiy va Bobur ruboiylari. Gulxaniy asarlaridagi arabiy o'zlashmalarni aniqlash usullari hamda ularning tahlili.

12-mavzu. Yangi va eski yil hisobi. Muchal hisobi

Yangi va eski yil hisobini aniqlash.

13-mavzu. Xat turlari. Xattotlik bosqichlari

Xat turlarini o'rganish. Xattotlik bosqichlarida eski o'zbek yozuvining o'rni.

14-mavzu. Nasta'liq xatining o'ziga xos xususiyatlari

Nasta'liq xatining o'ziga xos xususiyatlari. Nasta'liq xatini o'rganish hamda bu xatda yozilgan matnlarni tahlil qilish.

15-mavzu. Nasta'liq xatidagi matnlarni o'qish

Nasta'liq xatining o'ziga xos xususiyatlari. Matnlarni o'qish

16-mavzu. Abjad hisobi.

Arab va fors tilida abjad hisobini o'rganish..

17-mavzu. Harfiy san'atlar: tarix, muammo, tuyuq, tajnis, topishmoq, chiston.

Harfiy san'atlarni o'rganish. Ushbu san'at turlaridagi matnlarni tahlil qilish.

2-Modul. Eski o'zbek yozuvidagi matnlar

1-mavzu. Navoiyning "Ilk devon"idan matnlar o'qish va tahlil qilish

Navoiyning "Ilk devon"idan matnlar o'qish va tahlil qilish.

2-mavzu. "Zarbulmasal" asarini o'qish va tabdil qilish

Gulxaniyning "Zarbulmasal" asaridagi arabiy va forsiy so'zlarni o'rganish.

3-mavzu. "Qobusnoma" asarini o'qish va tabdil qilish

Kaykovusning "Qobusnoma" asarini eski o'zbek tilida o'qish.

4-mavzu. Lotin va kirill alifbosidagi matnni eski o'zbek yozuviga o'girish

Matnlarni eski o'zbek xatiga o'girishni o'rganish.

5-mavzu. Eski o'zbek yozuvida raqamlarning ifodalanishi

Eski o'zbek yozuvida raqamlarning berilishi. Arab va fors tilidagi raqamlarning eski o'zbek yozuvi bilan farqi.

IV. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

- amaliy mashg'ulotlar mavzusini aniq belgilab olish;
- o'qituvchining innovasion pedagogik texnologiyalardan unumli foydalana olishi;
- talabada natijani mustaqil tarzda qo'lga kiritish imkonini ta'minlash.

Amaliy mashg'ulot doirasida beriladigan fanning nazariy qismi mazmuni

Eski o'zbek yozuvi bo'yicha:

Arab yozuvining o'ziga xosliklari. Arab alifbosidagi haflarning yasalishi. Munfasil va muttasil harflar. Arab alifbosidagi o'zbek tiliga xos bo'lmagan tovushlarni ifodalovchi harflar. Eski o'zbek yozuvidagi matnlarda fors tilidan o'zlashgan so'zlar. Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yohud ahloq" asarini o'qish va tahlil qilish. Eski o'zbek yozuvidagi matnlarda arab tilidan o'zlashgan so'zlar. Arab o'zlashmalari ishtirok etgan matnlar tahlili. Yangi va eski yil hisobi. Muchal hisobi. Xat turlari. Xattotlik bosqichlari. Nasta'liq xatining o'ziga xos xususiyatlari. Abjad hisobi. Harfiy san'atlar: tarix, muammo, tuyuq, tajnis, topishmoq, chiston. Matnni tabdil qilish tamoyillari Lotin va kirill alifbosidagi matnni eski o'zbek yozuviga o'girish Eski o'zbek yozuvida raqamlarning ifodalanishi

V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim va topshiriqlar uchun tavsiya etiladigan mavzular:

Eski o'zbek yozuvi

1. Eski o'zbek yozuvi tarixi
2. Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yohud ahloq" asarini o'qish va tahlil qilish
3. Navoiyning "Ilk devon"idan matnlar o'qish va tahlil qilish
4. "Qobusnoma" asarini o'qish va tahlil qilish
5. Ahmad Yassaviy "Hikmatlar" ini o'qish va tahlil qilish
6. Gulxaniyning "Zarbulmasal" asarini o'qish va tahlil qilish
7. "Qissai Rag'buzyi" asarini o'qish

Ishchi dasturni shakllantirish jarayonida mustaqil ta'lim soatlari hajmiga mos holda mavzularni tanlab belgilash tavsiya etiladi.

Talaba “Sharq tillari va eski o‘zbek yozuvi” fanidan mustaqil ta’limni tashkil etish va topshiriqlarni bajarishda fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda mavzular bo‘yicha referat, taqdimot tayyorlashi tavsiya etiladi. Bunda o‘qitish va nazorat kilishning avtomatlashtirilgan tizimlari, fan buyicha qo‘shimcha adabiyotlar bilan ishlash hamda Internet tarmog‘idan foydalanishi maqsadga muvofiq. Mustaqil ishlar joriy nazorat tarkibida baholanadi.

VI. Asosiy va qo‘shimcha o‘quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

Asosiy adabiyotlar

1. Ashirboyev S., Azimov I., Rahmatov M., G‘oziev A. Eski o‘zbek tili va yozuvi praktikumi, Toshkent, “Ijod”, 2006.
2. Abdullaev F., Shermuhammedov T., Xalilov L., Xalilov A. O‘qish kitobi. – Toshkent, “O‘qituvchi”, 1994.
3. Jumaniyozov R. Eski o‘zbek yozuvi. –Toshkent, “O‘qituvchi”, 1989.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Sh.M.Mirziyoyev Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil yakunlari va 2017-yil istiqbollari bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so‘zi gazetasi. 2017-yil 16-yanvar, №11.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” to‘g‘risidagi Farmoni (Xalq so‘zi 2017-yil, 8-fevral)
3. Sh.M.Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilanbirga quramiz. T.: O‘zbekiston, 2017
4. Sh.M.Mirziyoyev Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.: O‘zbekiston, 2017.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari” to‘g‘risida (Xalq so‘zi 2017-yil, 21-aprel).
6. Abdullaev S., Oqilov M. Tarix aytish san’ati. // O‘zbek tili va adabiyoti, 1972, 3-son.
7. Juvonmardiev A. Harflar raqamlarga aylanganda. –Toshkent, G‘afur G‘ulom, 1966.
8. Juvonmardiev A. Harf va raqam. –Toshkent, “G‘afur G‘ulom”, 1971.
9. Jumaniyozov R. Eski o‘zbek yozuvidan amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar. –Toshkent, “O‘qituvchi”, 1989.
10. Imomxo‘jaev R., Umarov I. Arab – o‘zbek yozuvi. –Toshkent, “Sharq”, 1993.

Internet saytlari

1. <http://library.zivonet.uz/uz/book/35164>
2. <http://library.zivonet.uz/uz/book/35149>
3. <http://library.zivonet.uz/uz/book/41245>
4. <http://library.zivonet.uz/uz/book/40578>
5. <http://library.zivonet.uz/uz/book/34135>
6. <http://library.zivonet.uz/uz/book/33460>
7. <http://library.zivonet.uz/uz/book/33430>
8. <http://library.zivonet.uz/uz/book/29850>
9. <http://library.zivonet.uz/uz/book/17115>
10. <http://library.zivonet.uz/uz/book/36849>
11. <http://library.zivonet.uz/uz/book/57597>
12. <http://library.zivonet.uz/uz/book/10886>
13. <http://library.zivonet.uz/uz/book/9549>
14. <http://library.zivonet.uz/uz/book/56805>
15. <http://library.zivonet.uz/uz/book/35>